



O‘ZBEKISTON – BAA: IKKI MAMLAKAT YETAKCHILARINING OLIY DARAJADAGI TARIXIY MUZOKARALARI STRATEGIK HAMKORLIKNING YANGI DAVRINI BOSHLAB BERDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



15-yanvar kuni Abu-Dabi shahridagi “Qasr ash-Shati” qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon tor doirada hamda rasmiy delegatsiyalar a‘zolari ishtirokida muzokara o‘tkazdi.

Uchrashuv avvalida O‘zbekiston Prezidenti BAA Prezidentiga tashrif bilan kelish taklifi va samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi hamda “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan tabrikladi.

Davlat rahbarlari O‘zbekiston — BAA do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini, shu jumladan, siyosat, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor sohalarni yanada rivojlantirishning muhim masalalarini muhokama qildilar.

O‘zbekiston va Amirliklar xalqlarini mushtarak tarixiy ildizlar, o‘xshash an‘ana va qadriyatlar, muqaddas islom dini chambarchas bog‘lab turgani ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisining BAAga tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochayotgani — ular strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilayotgani qayd etildi.

So‘nggi yillarda tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo‘shma korxonalar soni bir necha barobar oshdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar soni ko‘paydi, vizasiz tartib joriy qilindi.

Tashrif doirasida BAAning yetakchi kompaniyalari bilan yangi, asosan, yuqori texnologik tarmoqlarda loyihalar portfeli shakllantirildi.

Siyosiy aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi muloqotni yanada rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Yetakchilar iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini, jumladan, sun‘iy intellekt, raqamlashtirish, “yashil” energetika, shaharsozlik va infratuzilma, turizm, yuqori biznes kabi 6 ta asosiy yo‘nalishni belgilab oldilar. Har bir ustuvor soha bo‘yicha alohida ishchi guruhlari tashkil etishga kelishildi.

Tomonlar 2025-2027-yillarni “O‘zbekiston va BAA o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi davri” deb e‘lon qilish taklifini qo‘llab-quvvatladilar.

Shu ma‘noda, 2030-yilga qadar o‘zaro savdo hajmini 10 barobarga ko‘paytirish va investitsiya portfelini 50 milliard dollariga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifa etib belgilandi.

O‘zbekiston ikki mamlakat ishbi-larmon doiralari o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash va BAA kompaniyalarining yurtimizdagi investitsiyaviy faoliyatini kengaytirishdan manfaatdorligi qayd etildi.

Madaniy-gumanitar almashinuv ko‘lamini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari Muhammad bin Zoid nomidagi universitet bilan hamkorlikda yuqori malakali kadrlar tayyorlash va sun‘iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bo‘yicha qo‘shma dasturni ishga tushirishni taklif etdi.

Muzokaralar davomida bo‘ljak oliy darajadagi tadbirlarga, shu jumladan, joriy yilda Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” muloqotining ikkinchi sammitiga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi.

Yetakchilar xalqaro siyosatning dolzarb jihatlari yuzasidan ham fikr almashdilar.

Abu-Dabi shahrida O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari Prezidentlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida quyidagi hujjatlar imzolandi:

— Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risida deklaratsiya;

— Investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— Moliyaviy-texnik hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Madaniyat sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonoma, Diplomatik akademiyalar o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Abu-Dabi shahriga tashrifi doirasida Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Ko‘p qirrali hamkorlik va ustuvor yo‘nalishlardagi amaliy sheriklikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston — BAA munosabatlarini strategik sheriklik darajasiga olib chiqqan

oliy darajadagi tarixiy muzokaralar yakunlari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Kuni kecha Birlashgan Arab Amirliklarining yetakchi kompaniya va xoldinglari rahbarlari bilan erishilgan kelishuvlar to‘liq amalga oshirilishi qo‘llab-quvvatlandi.

Uchrashuvda o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmini yanada oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Uy-joy va transport infratuzilmasi, energetika, tog‘-kon sanoati, shaharsozlik, raqamlashtirish va boshqa sohalarni rivojlantirish bo‘yicha kooperatsiya loyihalarini ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Sun‘iy intellekt borasida, shu jumladan, soha mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha qo‘shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifi doirasida Dubay shahrida BAA Vitse-prezidenti, Bosh vaziri Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum bilan muzokara o‘tkazdi.

Uchrashuvda bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar samarali bo‘lgani hamda O‘zbekiston — BAA munosabatlarini strategik sheriklik darajasiga ko‘targani yuqori baholandi.

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash kabi sohalarda faol muloqotlar va samarali hamkorlik olib borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yuqori texnologiyalar, raqamlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va boshqa istiqbolli yo‘nalishlarda yangi loyihalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga kelishib olindi.

BAAning sheriklari bilan O‘zbekistonda sun‘iy intellekt sohasida yaqindan hamkorlik qilishdan manfaatdorlik bildirildi.

Dubayning ilg‘or yechimlarini shaharsozlik sohasiga, jumladan, Yangi Toshkentda zamonaviy infratuzilmani yaratish doirasida joriy etishga alohida e‘tibor qaratildi.

Tomonlar faol muloqotni davom ettirish va amaliy sheriklikning barcha yo‘nalishlarida keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirishga kelishib oldilar.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON XALQARO MAYDONDA ISHONCHLI HAMKOR BO‘LISH QOBILIYATINI QAT‘IYAT BILAN NAMOYISH ETMOQDA

XORIJIIY EKSPERTLAR O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIGA RASMIY TASHRIFI HAQIDA



YANGI O‘ZBEKISTON DIPLOMATIYASI: JADAL VA SAMARALI QADAMLAR

2024-yil: Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatiga bir nazar

Tahlil

O‘tgan yil jonjon vatanimiz uchun nihoyatda barakali bo‘ldi. Yurtimiz hayotida yuz berayotgan beqiyos va shiddatli o‘zgarishlar, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tobora obod va go‘zallashib borayotganini hisobga olib, 2024-yil har tomonlama samarali, xosiyatli va fayzli kechdi deb aytishga barcha asosimiz bor.

Bunda o‘ziga yarasha bir hayotiy haqiqat mujassam. Bu xalqimiz shuuridan chuqur joy olgan yangi O‘zbekiston g‘oyasidir. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “Uzoq o‘tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g‘oya va amaliy



harakatlarda o‘z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O‘zbekiston tushunchasida jamuljam bo‘lmoqda”. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida milliy davlatchilgimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi, jahon

hamjamiyati bilan do‘stona munosabatlarni tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash tamoyillari mujassam. Mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilar ekanmiz, o‘tgan yili ham yurtimizning dunyoda raqobatbardosh davlat va ishonchli hamkor sifatidagi obro‘-

e‘tibori yanada yuksalgani va ayniqsa, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik konstruktiv tashabbuslarimiz jahon hamjamiyati tomonidan yakdil qo‘llab-quvvatlanganiga amin bo‘lamiz.

Davomi 3-beta



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'ZBEKISTON XALQARO MAYDONDA ISHONCHLI HAMKOR BO'LISH QOBILIYATINI QAT'IYAT BILAN NAMOYISH ETMOQDA

XORIJIY EKSPERTLAR O'ZBEKISTON PREZIDENTINING BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIGA RASMIY TASHRIFI HAQIDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-15-yanvar kunlari Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan BAAda bo'ldi.

Tashrif doirasida davlatimiz rahbari "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" xalqaro sammitida ishtirok etib, nutq so'zlad. Shuningdek, Toshkent shahridagi Prezident maktabini Barqaror rivojlanish sohasidagi Shayx Zoid nomidagi mukofot bilan taqdirlash marosimida ishtirok etdi.

O'zbekiston Prezidenti BAA hukumati a'zolari, yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi.

Oliy darajadagi O'zbekiston — BAA muzokaralari yakuni bo'yicha Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi deklaratsiya va turli sohalarda ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan boshqa bitimlar imzolandi.

Tashrifning boy dasturi va uning yakunlari bo'yicha erishilgan kelishuvlar xalqaro ekspertlar hamjamiyati vakillari tomonidan keng e'tirof etilmoqda.

Suyy TAO, XXR Davlat kengashining Ijtimoiy rivojlanish tadqiqotlari markazi huzuridagi Yevrosiyo ijtimoiy rivojlanish instituti direktori o'rinbosari:

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BAAga tashrifi va "Barqaror rivojlanish haftaligi — 2025" (ADSW 2025) dagi ishtiroki ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur tadbir odatiy diplomatik tashrifdan farqli o'laroq, barqaror rivojlanish va "yashil" iqtisodiyot sohasidagi hamkorlikning strategik ahamiyatini ifodalaydi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tahlili O'zbekiston va BAA ekologik jihatdan mas'uliyatli taraqqiyot tamoyillariga sodiqligi va ushbu tashrifdan global darajada hamkorlikni kuchaytirish uchun foydalanish istagida ekanini ham ko'rsatadi.

O'zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda jiddiy sa'y-

harakatlarni namoyish etmoqda. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 50 foizga yetkazishdek ulkan maqsad BAAning "yashil" energetika sohasidagi tashabbuslariga to'liq mos keladi.

2025-yilning O'zbekistonda Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilinishi milliy ustuvorlik va xalqaro tajriba o'rtasida uyg'unlik yaratib, BAA bilan bilim va texnologiyalar almashish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi.

O'zbekistonning "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzorlashtirish, Orol fojiasi oqibatlariga qarshi kurashish va aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan 2025-yilga mo'ljallangan milliy dasturi ekologik muammolarni hal etishga kompleks yondashuvni namoyon etadi. Global ekologik kun tartibidagi faol ishtiroki (BMT rezolyutsiyalarining qabul qilinishi) O'zbekistonning barqaror rivojlanish masalalarida Markaziy Osiyodagi yetakchilik pozitsiyasini tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, BAA bilan hamkorlik O'zbekistonning milliy maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Roy Antoni RODJERS, Malayya universiteti xalqaro va strategik tadqiqotlar kafedrasini professori:

— Tashrif, shubhasiz, O'zbekiston — BAA munosabatlarni, ayniqsa, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energetika va "yashil" iqtisodiyot sohasida mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston yetakchisining Abu-Dabi shahrida o'tgan oliy darajadagi muzokaralarining samarali natijalari BAA bilan strategik sheriklikni mustahkamlashda sezilarli yutuqlarga erishilganini ko'rsatadi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energetika,

barqaror rivojlanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi muhim sohalarda hamkorlikni chuqurlashtirishga har ikki tomonning tayyorligini yaqqol namoyish etadi. Bu qo'shma loyihalar va O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqegini mustahkamlash yo'lidagi yangi istiqbollarni ochadi.

O'zbekiston rahbarining "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" sammitidagi nutqi alohida e'tiborga molik bo'lib, unda barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik va "yashil" energetika bilan bog'liq qator muhim jihatlarni qamrab olindi. Shu tariqa Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning iqlim o'zgarishi va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini bo'yicha global muloqotning faol ishtirokchisiga aylanishiga bog'liq intilishini namoyish etdi.

Bundan tashqari, Prezident nutqi Markaziy Osiyoni mintaqada energetika xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan va qo'shni davlatlar o'rtasidagi hamkorlikka hissa qo'shishi mumkin bo'lgan "toza" energiya ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylantirish bo'yicha ulkan rejalarni aks ettirdi. Bu, o'z navbatida, "Buyuk ipak yo'li" doirasida energetik o'zaro bog'liqlik g'oyalari ham qo'llab-quvvatlaydi.

Quvonarlisi, O'zbekistonda quyosh va shamol energetikasi jadal rivojlantirilib, energiyani saqlash loyihalari amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi besh yilda hukumat tomonidan energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingani mamlakat iqtisodiyoti va "yashil" tashabbuslarga bog'liq ishonchning yuqoriligidan dalolat beradi. Bu O'zbekistonning qayta tiklanadigan energiya manbalari g'oyasini tezlashtirish uchun ham muhimdir, chunki yirik xalqaro kompaniyalar nafaqat kapital, balki ilg'or texnologiyalarni ham olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, BAAga tashrif va O'zbekiston rahbarining "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi"dagi ishtiroki

mamlakatning barqaror rivojlanish va "yashil" energetika bo'yicha global tashabbuslarga faol qo'shilish istagini tasdiqlaydi. O'zbekistonning energetika, ekologiya va iqlim o'zgarishi bo'yicha o'z strategiyasini taqdim etishi, shuningdek, BAA bilan muvaffaqiyatli hamkorligi uning barqaror rivojlanish masalalarini bo'yicha mintaqadagi yetakchi sifatidagi nufuzini mustahkamlamoqda.

Cheve Yon XA, Koreya Respublikasining O'zbekistondagi sobiq elchisi:

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Abu-Dabi sammitidagi nutqi, shu jumladan, tashabbuslari yangi O'zbekistonning iqlim o'zgarishi muammolarini hal etish va barqaror kelajakni yaratishga sodiqligining yorqin namunasidir. Xususan, 2030-yilga borib issiqxonaga gazlari chiqindilarini 35 foizga qisqartirish va qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish kabi ulkan maqsadlar mamlakatimizning uzoqni ko'zlagan yondashuvini namoyon etadi.

2025-yilni O'zbekistonda Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilish to'g'risidagi qaror "yashil" strategiyalarni rivojlantirishga qat'iy sodiqlik belgisi sifatida alohida tahsinga loyiq. Quyosh va shamol elektr stansiyalari kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari katta sarmoya kiritishni o'z ichiga olgan yirik loyihalar iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha global sa'y-harakatlarga sezilarli hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, resurslarni tejash va innovatsion "yashil" texnologiyalarni joriy etish sohasidagi muvofiqshahar bo'yicha harakatlar ham e'tirofga loyiq. Xalqaro sheriklik, jumladan, BAA, Qozog'iston va Ozarbayjon bilan o'rnatilgan hamkorlik "yashil" energetika sohasidagi tashabbuslarni ilgari surish uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlik muhim ekanini tasdiqlaydi.

Kam uglerodli rivojlanish strategiyalari, "yashil" moliyalashtirish dasturlari va qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalar kabi

sohalarni qamrab olgan kompleks yondashuv barqaror kelajak uchun mustahkam poydevor yaratadi. O'rmonlarni qayta tiklash va ko'kalamzorlashtirish loyihalariga berilayotgan e'tibor ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit tasavvurdan dalolat beradi.

Soleyman XIVECHI, Eronning "Ala Tejarat Mahad Qabous" kompaniyasi boshqaruvi raisi:

— O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari munosabatlarda so'nggi yillarda ko'plab yo'nalishlarda, ayniqsa, barqaror rivojlanish va "yashil" iqtisodiyot sohasida hamkorlikning chuqurlashuvi bilan tavsiflanuvchi jadal o'sish davri kuzatilmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BAAga tashrifi va Abu-Dabidagi "Barqaror rivojlanish haftaligi — 2025"dagi ishtirokini katta qiziqish bilan kuzatdim.

BAA rahbariyati bilan ikki tomonlama uchrashuvlar sheriklikning strategik ahamiyati va har ikki mamlakatning ekologik jihatdan mas'uliyatli taraqqiyot tamoyillariga sodiqligini bildiradi.

O'zbekiston va BAA o'rtasidagi munosabatlar, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohada sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun ulkan salohiyatga ega. Oliy darajadagi faol siyosiy muloqot ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu hamkorlik O'zbekiston uchun Ko'rfaz arab davlatlari bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy, transport, kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalarda aloqalarni kengaytirishning yangi istiqbollari ochadi.

Abu-Dabi Markaziy Osiyoda barqaror manfaatlar ulamoqda. Shu o'rinda Amirlikning ulkan moliyaviy, investitsiyaviy va ilmiy-texnik salohiyati uni "O'zbekiston — 2030" strategiyasini dasturlarini amalga oshirish va mamlakatni yanada rivojlantirishda eng muhim sheriklardan biriga aylantiradi.

O'zbekiston va BAA kompaniyalari o'rtasida qator yangi kelishuvlar imzolandi. Ikki davlat investitsiya kompaniyalari portfeliga tibbiyot, tog'-kon, qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida 192,5 million dollarlik 7 ta loyiha kiritildi.

Uchrashuvda "AMEA Power", "Masdar", "Solar Power Shine", "M42", "Burjeel Holdings", "IFFCO", "TWS", "Alserkal Group", "Metito", "AD Ports", "Jetex", "Emirates Group" va boshqa kompaniyalar bilan yana 15 ta bitim va shartnomalar imzolandi.

Toshkent va Abu-Dabi o'rtasida energetika va turizm sohalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mazkur yo'nalishlardagi hamkorlik ikki mamlakat iqtisodiyoti manfaatlariga mos keladi.

Bakit BAKETAYEV, qirg'izistonlik siyosatshunos:

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan islohotlar mintaqaning ko'plab mamlakatlari uchun namuna bo'ldi. Ular nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga, balki xalqaro aloqalarni mustahkamlashga ham qaratilgan. Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston rahbarining BAAga rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi, ayniqsa, barqaror rivojlanish, energetika va innovatsiyalar sohasidagi sheriklikning strategik ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'zbekiston xalqaro maydonda ishonchli hamkor bo'lish qobiliyatini qat'iyat bilan namoyish etmoqda, bu esa uning Markaziy Osiyodagi yetakchi sifatidagi mavqegini mustahkamlamoqda.

Barqaror rivojlanish va global jarayonlarga integratsiyalashuvga e'tibor nafaqat mamlakat, balki butun mintaqaga uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy va madaniy almashinuv uchun yangi imkoniyatlar yaratishga hissa qo'shmoqda.

"Dunyo" AA

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

INSON VA TABIAT MUVOZANATI



Xushvaqt HAYITOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Zamonaviy dunyoda ko'pchilik davlatlar barqaror rivojlanish va xavfsiz ekologik muhitni yaratish, uni saqlab qolish bo'yicha qator muammolar bilan yuzlashmoqda. Afuski, ushbu muammo va vazifalar bizning mamlakatimiz uchun ham dolzarb hisoblanadi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni loyihasi muhokama uchun e'lon qilingani jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasi Oliy Majlis palatalarining birinchi yalpi majlislari, Hukumatni shakllantirish bo'yicha yig'ilishdagi tashabbuslar, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida nazarda tutilgan vazifalar ijrosini ta'minlashni nazarda tutadi.

Loyihada atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot masalalari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, davlat boshqaruvi, sud-huquq, xavfsizlik va tashqi siyosat yo'nalishlarida 2025-yilga mo'ljallangan keng ko'lami islohotlar o'rin egallagan. Bunda eng ustuvor yo'nalish mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish, bu orqali aholi salomatligini mustahkamlash, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shuningdek, hujjatda tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish, respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini

oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik "yashil energiya" stansiyalarini barpo etish chora-tadbirlari ham ko'zda tutilgan.

Hududlarda kichik va mikro gidroelektrostansiyalar tarmog'ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energiyatejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirish, ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqshahar bo'yicha ta'minlash kabilarga alohida e'tibor qaratilib, resurslar yo'naltirilgan.

Joriy yilda 27 mingdan ziyod ijtimoiy va xususiy obyektlar hamda 35 mingta xonadonga kichik quyosh panellarini o'rnatish, investitsiya loyihalari doirasida 2763 MvT, quyosh, 752 MvT, shamol, 128 MvT, gidro va 1782 MvT energiya saqlash tizimini ishga tushirish, 2025-2026-yillarda jami quvvati 164 megavatt bo'lgan 3 mingta mikro gidroelektr stansiya qurish kabilarda shular jumlasidan.

Ushbu dasturiy hujjatda yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 43 foizga yetkazish, oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli Top-1000 oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu, o'z navbatida, ta'lim olish istagida yurgan ko'plab yigit-qizlarning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratadi.

Mehnatga layoqatli aholi, shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash orqali ishsizlik darajasini tushirish borasidagi vazifalar ham muhim. Umuman, loyihada bayon etilgan g'oyalarning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil etadigan bo'lsak, unda yurtidoshlarimiz uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, barcha qilinajak ishlarimiz inson qadriini ulug'lashga qaratilganiga amin bo'lamiz.

Davlat dasturi bu — muayyan davrda davlat miqyosida bajarilajak ishlar majmuidir. Shu ma'noda, har bir fuqaro loyihani yanada takomillashtirish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini berish bilan birga mazkur jarayonda faol ishtirok etishi lozim. Zero, ushbu daxldorligimiz mamlakat taqdiri va taraqqiyoti timsolida o'z aksini topadi.

Agrar tarmoq

KELISHUVLAR NATIJASIDA SOHADA ZAMONAVIY LOYIHALAR KO'PAYADI

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimizning yetakchi sohalardan biri. Mamlakatimizdagi band aholining aksariyati agrar sohada mehnat qilayotgani shundan dalolat beradi. Sohaga ilm va innovatsiya, ilg'or texnologiyalar izchil tatbiq etilayotgani esa erishilayotgan marralarda namoyon bo'ladi. O'tgan yili yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz mahsulotlari, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko'p go'sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirilgani buning isbotidir. Qolaversa, dunyo bozorida mamlakatimiz zaminida pishib yetilgan mahsulotlarga talab yuqoriligi bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi global dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo'jaligi rivoji tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratayotgani diqqatga sazovor.

Shu kunlarda davlatimiz rahbarining Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifi doirasida qishloq xo'jaligi yo'nalishida ham turli uchrashuv va muloqotlar o'tkazilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va BAAning nufuzli IFFCO Group kompaniyasi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Mazkur kelishuv bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Soxta mahsulotlarga qarshi kurash va intellektual mulkni himoya qilish, import hajmini oshirish, texnologiyalarni jalb qilish va o'quv dasturlari ishlab chiqish, qo'shimcha sanoat loyihalarini amalga oshirish masalalarini shular jumlasidan. Memorandumga ko'ra, IFFCO Group tomonidan O'zbekistonda strategik oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan, un va o'simlik yog'ini yiliga 10 ming tonnagacha eksport qilish rejalashtirilgan.

Ushbu kompaniya bilan 2025-2028-yillarda oziq-ovqat sanoati sohasida bir nechta loyiha amalga oshiriladi, — deydi Qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari vazifasini bajaruvchi Jamshid Abdusuhurov. — Qayd etish kerakki, keyingi yillarda O'zbekiston — BAA munosabatlari qishloq xo'jaligi yo'nalishida ham istiqbolli

loyihalar asosida rivojlanib bormoqda. Davlatimiz rahbari amaliy tashrifi doirasida turli sohalarda bo'yicha investorlar bilan muloqot olib borilib, kelishuvlarga erishilayapti.

Ana shunday uchrashuvlardan biri Qatarning "Kondor Group" kompaniyasi vakili bilan o'tkazildi. Unda ilmiy tadqiqot, ta'lim va innovatsiyalar sohasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tajriba almashish, ikki mamlakat qishloq xo'jaligiga oid ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun doimiy hamkorlik platformasini yaratish istiqbollari yuzasidan rejalarni belgilab olindi. Samarqand shahrida Oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriyasini tashkil etish bo'yicha kelishildi.

Bugungi kunda BAA bilan hamkorlikda yurtimizda agrar va oziq-ovqat sanoatida 5 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Andijon viloyati Paxtaobod tumanida "E-20 Investment" kompaniyasi tomonidan agrarsoat (meva-rezavor) klasteri, Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida intensiv bog'lar barpo qilish, "Luxor" kompaniyasi tomonidan Toshkent shahrida agrologistika xizmatini tashkil etish va omborxonaga qurish loyihalari shular sirasiga kiradi.

Dilshod JUMABOYEV, jurnalist



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



YANGI O'ZBEKISTON DIPLOMATIYASI: JADAL VA SAMARALI QADAMLAR

2024-yil: Yangi O'zbekiston tashqi siyosatiga bir nazar

Tahlil



Akmal SAIDOV,
BMTning Inson huquqlari
qo'mitasi a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Bundan sakkiz yil muqaddam davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ochiq, pragmatik, konstruktiv, faol va tinchliksevar tashqi siyosat 2024-yilda ham o'zining samarasini berdi.

Shu ma'noda, yakuniga yetgan yilda mamlakatimizning faol tashqi siyosat sarhisobini xolis tahlil qilar ekanimiz, shubhasiz, global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berayotgan, tahlikali sinov hamda tahdidlar sharoitida yangi O'zbekiston diplomatiyasining yurtimiz iqtisodiy va siyosiy qudratini yanada yuksaltirish, milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq yutuqlariga guvoh bo'lamiz.

O'tgan yil xalqaro hayotdagi murakkab va ziddiyatli o'zgarishlarga qaramay, yangi O'zbekiston yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mustahkamlangan xalqaro munosabatlarda teng huquqlik va davlatlarning suveren tengligini hurmat qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik hamda xalqaro huquqning umumiy tirof etilgan prinsiplariga sodiqligini tasdiqladi. Shuningdek, mamlakatimiz tashqi munosabatlarni ham doim va barcha davlatlar bilan o'z milliy manfaatlarini ham, jahon taraqqiyoti tendensiyalarini ham hisobga olgan holda rivojlantirishga tayyor ekanini amalda ko'rsata oldi.

"Xalqaro munosabatlar mohiyati va mazmuni tubdan o'zgarayotgan, jahonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan hozirgi zamonda, har bir ishimizda, qabul qilayotgan barcha qonun va qarorlarimizda faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini eng ustuvor o'rinda turishi shart", deb ta'kidlaydi mamlakatimiz yetakchisi.

Prezidentimiz yuritayotgan tashqi siyosatning tub falsafiy maqsadi har qanday vaziyatda xalqning oliy manfaatlarini himoya qilishdir. Binobarin, davlatimiz rahbarining "Mening eng katta maqsadim — xalqimni rozi qilish, baxtli ko'rish" deb ta'kidlashi zamirida teran ma'no bor, albatta.

Shu satrlarni yoza turib, yodimga beixtiyor buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshbandning ideal davlatni "falsafiy hukmdor" boshqarishi kerakligini ta'kidlab, "Hukmdor zohiran xalq bilan, botinan haq bilan bo'lishi lozim", degan so'zlari keldi. Mutafakkir alloma Alisher Navoiy ham benazir asarlarida inson va uning taqdiri, xalq va uning manfaatlarini yo'lida g'amxo'rlik qiladigan hukmdorni ulug'lab kelgani ayni haqiqat.

Shu jihatdan davlatimiz rahbari qaysi xalqaro anjumanda ishtirok etmasin, qaysi davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan muloqot qilmasin, xalqimiz manfaatlarini himoya qiluvchi, global darajada fikrlanishi davlat arbobi, xalqaro darajadagi, o'ta murakkab masalalarni ijobiy hal etish borasidagi ilg'or tashabbuslari va ayniqsa, serg'ayrat ekani va qolaversa, samimiy inson sifatidagi ezgu xislatlari bilan subhatdoshini hayratda qoldira oladi.

Shu o'rinda raqamlarga murojaat etaylik. 2024-yilda Prezident 17 ta xalqaro tashrifni amalga oshirdi, xorijiy tashriflar doirasida 100 dan ortiq uchrashuv va muzokaralar o'tkazdi. Shuningdek, 2024-yilda 140 dan ortiq xalqaro tadbirga ishtirok etdi. 264 dan ziyod ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnoma hamda hujjat imzolandi. Ikki va ko'p tomonlama xalqaro tadbirlar doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar soni 2000 dan ortiq, investitsiya loyihalar va savdo bitimlari qiymati qariyb 120 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Shavkat Mirziyoyev fenomeniga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an shunday ta'rif bergandi: "Qadri qardoshim Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan O'zbekistonning mintaqaviy va global siyosatdagi ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Bu bizga cheksiz quvonch bag'ishlaydi. O'zbekiston davlati rahbarini samimiy do'st va har tomonlama strategik hamkor deb bilaman".

Yangi Markaziy Osiyo: mintaqaviy hamkorlikning samarali modeli

Chet ellik taniqli ekspertlar e'tiroficha, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo tom ma'noda xavfsizlik, izchillik va barqaror rivojlanish mintaqasiga aylanib, xalqaro hamkorlar uchun jozibadorligi tobora ortib bormoqda.

Shavkat Mirziyoyev prezidentlik lavozimiga kirishishi bilan Markaziy Osiyoni tashqi siyosatimizning eng ustuvor yo'nalishi deb belgiladi. Shu asosda qo'shnilarimiz bilan do'stona munosabatlar tubdan yaxshilandi.

Davlatimiz rahbarining yangi Markaziy Osiyo haqidagi orzusi bugun real haqiqatga aylanmoqda. Mintaqamiz iqtisodiy o'sish va investitsion faollik markazlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Bugungi noyob tarixiy imkoniyatlar asosida Markaziy Osiyo o'zaro manfaatli hamkorlik, xavfsiz va barqaror taraqqiyot makoniga aylanmoqda. Shu jihatdan o'tgan yilda davlatimiz rahbarining qo'shni davlatlarga 7 marotaba tashrif buyurgani ham bejiz emas.

2024-yil avgustda Prezidentimiz davlat tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Birgalikdagi tizimli va amaliy sa'y-harakatlar tufayli O'zbekiston — Qozog'iston hamkorligini itifoqchilik munosabatlardik eng oliy bosqichga olib chiqishga erishilganini barcha xorijiy siyosatchilar yuqori baholadi.

Muzokaralar chog'ida, birinchidan, parlamentlarning ikki palatasi ishtirokida Parlamentlararo forum tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi.

Ikkinchidan, hamkorlikning yana bir yangi zamonaviy shakli — Tashqi ishlar vazirlari kengashini ta'sis etish to'g'risida qaror imzolandi.

Uchinchidan, har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan 2024-2034-yillarga mo'ljallangan Strategik sheriklik va itifoqchilik dasturi qabul qilindi.

Eng muhimi, avvallari davlatlararo munosabatlar rivojiga to'g'anoq bo'lib turgan transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish masalalarida yaqin hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

O'zbekiston rahbari Ostonada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvida ishtirok etdi. So'nggi yillarda an'anaga aylangan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvlaridagi samimiy muloqot, ilgari surilgan muhim tashabbuslar, amalga oshirilgan ko'p tomonlama loyihalar mintaqa qiyofasini tubdan o'zgartirdi.

O'zaro savdo, investitsiya, yuk tashish, fuqarolarning tashrif hajmi bir necha barobar ko'paydi. Xorijiy sheriklar tomonidan amaliy



qilish bo'yicha mintaqaviy markaz tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Shuningdek, "Markaziy Osiyo — Germaniya" ikkinchi sammitida mintaqada barqaror rivojlanish masalalarini ustida alohida to'xtalib, Germaniya bilan hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha o'z qarashlarini bayon etdi.

Birinchi yo'nalish. Ustuvor sohalarda dasturiy tadbirlarni qamrab olgan, uzoq muddatga mo'ljallangan Hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish taklif etildi. Ushbu hujjatni ishlab chiqish uchun "Markaziy Osiyo — Germaniya" tahlil markazlari forumini ta'sis etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish va uning birinchi majlisini 2025-yili nemis-mendonitlarining katta jamoasi yashagan mintaqadagi qadimiy shaharlardan biri — Xivada o'tkazish masalasi o'rtaga tashlandi.

Ikkinchi yo'nalish. "Markaziy Osiyo va Germaniya" investor va tadbirkorlari kengashini ishga tushirish. Uning birinchi uchrashuvini 2025-yili Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazish; investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi ko'p tomonlama hukumatlararo bitimni qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqish.

O'zbekiston va BMT: global muammolar yechimi yo'lida muvaffaqiyatli hamkorlik

O'zbekiston BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan global muammolar yechimi masalalarida samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida mamlakatimiz tomonidan 140 ta ko'pshim dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilmog'da. Keyingi yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 11 ta maxsus rezolyusiyasi qabul qilindi.

2024-yilning o'zida BMT Bosh kotibining beshta o'rinbosari O'zbekistonga tashrif buyurdi. Mamlakatimiz Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (ECLAC) tarkibiga hamda Xalqaro mehnat tashkilotining ma'muriy kengashiga saylandi. O'zbekiston vakili birinchi marta BMT Inson huquqlari qo'mitasi a'zosi bo'ldi. Toshkentda BMTning yana bir maxsus muassasasi — Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro jam'ama vakolatxonasi ish boshladi. 2025-yilda Samarqandda UNESCOning 43-bosh konferensiyasi bo'lib o'tadi.

Eng muhimi, davlatimiz rahbarining eng nufuzli xalqaro sammitlarda ilgari surgan global ahamiyatga molik tashabbuslari BMT tomonidan o'qishlanmoqda.

Masalan, o'tgan yili Bokuda 200 dan ortiq mamlakatning davlat va hukumat, xalqaro tashkilot va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etgan BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29)da davlatimiz rahbari O'zbekiston global iqlim o'zgarishlari oqibatlarini birgalikda bartaraf qilishda faol ishtirok etishga tayyor ekanini bildirib, quyidagi muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Birinchi tashabbus: rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko'magini kengaytirish maqsadida iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markaz ta'sis etish.

Ikkinchi tashabbus: BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar to'g'risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish.

Uchinchi tashabbus: dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlar uchun O'zbekistonda BMTning innovatsion agrosanoat xabini yaratish.

To'rtinchi tashabbus: iqlim o'zgarishlaridan zarar ko'rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo'yicha ilg'or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish hamda uning birinchi forumini Toshkentda o'tkazish.

Prezidentimiz Bokuda bo'lib o'tgan mazkur konferensiyada doirasida boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan o'ndan ortiq muzokara o'tkazgani va unda Orolbo'yi hududini tiklash masalalarini muhokama qilgani, 2025-yilda O'zbekistonda Global ekologik fond donorlarining yirik xalqaro tadbirlarini o'tkazish yuzasidan ham fikr almashilgani xorij matbuotida alohida e'tirof etildi.

Pragmatik va ko'p vektorli tashqi siyosat — yangi O'zbekistonning strategik yo'nalishi

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida davlat o'z xalqi faronovligi yo'lida faqat va faqat milliy manfaatlariga asoslangan pragmatik va ko'p vektorli tashqi siyosat yuritishda davom etishi qayd etilgan.

Hamkor mamlakatlar bilan hamda xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish o'tgan yilda ham samara berdi.

Ushbu yo'nalishda Prezidentimizning Ozarbayjonning Shusha shahrida "Transport, o'zaro bog'liqlik va iqlim harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish" shiori ostida bo'lib o'tgan Turkiya davlatlar tashkilotining sammitidagi samarali ishtiroki mamlakatimiz tashqi siyosati tarixiga muhrlandi.

Bundan besh yil muqaddam Turkiya davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lib kirgan mamlakatimiz o'tgan qisqa muddatda 30 dan ortiq muhim yo'nalishda o'zaro manfaatli va keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Mazkur nufuzli sammitda davlatimiz rahbarining Turkiya dunyodagi birlik va integratsiyani rivojlantirish, dunyoning asosiy bozorlariga chiqish hamda Buyuk ipak yo'lini yangi tarixiy sharoitda qayta tiklash, savdo va transport sohasida xalqaro koridorlar imkoniyatidan yanada unimli foydalanish, muqobil energetika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish borasidagi qator tashabbuslari ishtirokchi davlatlar tomonidan bir ovozdan ma'qullanishi O'zbekiston diplomatiyasining yana bir yutug'i bo'ldi.

O'tgan yilda O'zbekiston MDH, SHHT, BRICS kabi xalqaro strategik platformalar doirasida ham o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ko'p tomonlama savdoni rivojlantirish, mintaqadagi xavfsizlik hamda barqarorlikni ta'minlash, muammolarni xalqaro miqyosda muhokama qilishda o'z pozitsiyasini yanada kuchaytirdi.

Prezidentimiz 2024-yil oktabrida MDH davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi. Kengashda davlatimiz rahbari 2025-yil bahorida Toshkent shahrida "Innoprom" xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida MDH Iqtisodiy kengashi yig'ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazishni taklif etdi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari ekspertlari va tahlilchilarining uchrashuvini mutazam o'tkazish hamda navbatdagi konferensiyani Samarqand shahrida sun'iy intellektli rivojlantirish masalalariga bag'ishlab tashkil etish borasidagi tashabbusi mamlakatlarning iqtisodiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotining kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim qadam bo'ldi. Negaki sun'iy intellektli joriy qilish sohasidagi o'zgarishlar mamlakatlarning global raqobatbardoshligini oshirish, yoshlarga ilmiy va texnik ta'lim berish sohasida muhim imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi.

Mamlakatimizning SHHTdagi ishtiroki alohida diqqatga sazovor. SHHT madaniy-sivilizatsiyaviy va milliy taraqqiyot modellari turlicha bo'lgan mamlakatlarni birlashtirgan o'ziga xos xalqaro tuzilmadir. Bugun u ulkan geografik makonni qamrab olgan va sayyoramiz aholisining qariyb yarmini birlashtirgan. Uning bosh maqsadi — mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash orqali ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish.

Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, "Tashkilot soxta siyosiy va mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lgan keng ko'lami hamkorlikni o'rnatishga intilayotgan ko'plob mamlakatlarni o'ziga tortadigan markaz bo'lib qolmoqda".

Prezidentimiz 2024-yil iyulida SHHT davlat rahbarlari kengashi majlisida global va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar kuchayib borayotgan davrda SHHT hamjihatligi zaiflashishiga yo'l qo'ymaslik, "SHHT oilasi" jipsligini kuchaytirish, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga izchil tatbiq etish zarurligiga barcha davlat rahbarlarining e'tiborini qarati va strategik hamkorlikni yuksaltirish bo'yicha 10 ga yaqin konstruktiv tashabbusni taklif etdi.

Davlatimiz rahbarining "BRICS plyus" formatidagi sammitida barqaror taraqqiyotning umumiy maqsadlariga erishishda hamkorlikni rivojlantirish, xususan, ishbarimonlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, ayniqsa, radikkallashuv va ekstremistik g'oyalarning, avvalo, yoshlar o'rtasida tarqalishining oldini olish borasidagi taklif va mulohazalarni tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan ma'qullangan davlatimizning xalqaro maydonidagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qildi.

O'zbekistonning faol va pragmatik tashqi siyosati tufayli mamlakatimiz jahon siyosati

markazlaridan biriga va global tashabbuslar muallifiga aylanmoqda. Bunga yana bir misol: Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yilda Parlamentlararo itifoqning 150-yubiley assambleyasi O'zbekistonda o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Jahondagi 180 mamlakat parlamentini birlashtirgan ushbu nufuzli tuzilma o'zining oliy organi — assambleyani parlamentarizm va barqaror rivojlanishning ijobiy tajribasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda o'tkazadi. Assambleyaning ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasida, O'zbekistonda o'tkazilishi esa Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizdagi demokratik islohotlar, parlamentarizmni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy diplomatiyaning yangi shakli

Bugun davlat rahbarlarining telefon orqali muloqoti zamonaviy diplomatiyaning yangi va muhim elementiga aylangan. Zero, bu dolzarb xalqaro masalalarni muhokama qilish, muhim siyosiy, iqtisodiy muammolar borasidagi pozitsiyalarni zudlik bilan kelishish uchun faol foydalaniladigan zamonaviy va tezkor aloqa shaklidir.

Bunday subhatlar davlat rahbarlari o'rtasidagi shaxsiy va ishonchli aloqalarni mustahkamlash hamda xalqaro munosabatlarning yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Davlatimiz rahbarining zamonaviy diplomatiyaning yangi shaklidani foydalanishini tahlil qilar ekanimiz, o'tgan yilda xorijiy davlatlar yetakchilari bilan 44 marotaba telefon orqali muloqot qilgani guvohi bo'lamiz.

Masalan, Prezidentimiz 2024-yil martida BAA Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan telefon orqali samimiy muloqot qildi. Muloqotda O'zbekiston bilan BAA o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik bugun yuksak darajaga chiqqani katta mamnuviyat bilan qayd etildi.

Bugun O'zbekistonda BAA sarmoyasi ishtirokida 300 dan ortiq korxonada faoliyat yuritmoqda, qo'shma loyihalar portfeli 4 milliard AQSH dollaridan oshdi. Bundan tashqari, yuqori texnologiyalar, energetika, geologiya, qishloq xo'jaligi, turizm, IT, infratuzilma, logistika va boshqa sohalarda istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmog'da.

2024-yilda davlatimiz yetakchisining Rossiya, Belarus, Eron, Turkiya, Ozarbayjon va qo'shni davlatlar prezidentlari, Malayziya va Yaponiya Bosh vazirlari kabi qator xorijiy davlat hamda hukumatlar rahbarlari bilan telefon muloqoti zamirida yagona maqsad yotadi. Bu ham bo'lsa, yangi O'zbekiston kelajagi, xalqimiz manfaatini yo'lida xorijiy davlatlar bilan dolzarb siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni tezkor muhokama qilishdir.

Yana bir gap. Davlatimiz rahbari telefon muloqoti orqali xorijiy safarda yoki olimpiya musobaqalarida bo'lgan yurtdoshlarimiz holidan xabar oladi, ular bilan birma-bir shaxsan subhatlashadi, sportchilarimizga zarfalar taylaydi.

Masalan, 2024-yil mayda Prezidentimiz O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xolijonov bilan telefon orqali muloqot qilib, haq safaridagi qariyb 12 ming ziyoratchi uchun yaratilgan sharoitlar, ularning salomatligi va kayfiyati haqida qayg'urib so'radi. Davlatimiz rahbari yurtdoshlarimiz muqaddas haj ibodatini mukammal adab etib, sog'omon kelishlarini tiladi.

Bu kabi o'nlab misollar esa o'zbek xalqining Shavkat Mirziyoyevdek jonkuyar va yuksak insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan buyuk rahbari borligidan dalolat beradi va qalbmizga cheksiz faxr va g'urr bag'ishlaydi.

Mazkur misollar yangi O'zbekistonning faol tashqi siyosat va ko'p qirrali tashqi iqtisodiy faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi. Zero, yangi O'zbekiston diplomatiyasi prinsipi xalqaro munosabatlarda umumbashariy, mintaqaviy va milliy darajadagi muammolarni hal etish, tahdidlarni bartaraf qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlashda tashabbuskor bo'lishni ham nazarda tutadi.

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

IJTIMOY, IQTISODIY VA EKOLOGIK MUVOZANAT ASOSIDA YUKSALISH TAMOYILI



Global baholash — munosib e'tirof

BMT Statistika komissiyasining 55-sessiyasida BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasi, Yevrostat va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi tomonidan 2024-yilda O'zbekiston milliy statistika tizimini global baholashdan o'tkazish rejalashtirilgan edi. Shu munosabat bilan 2024-yilda mamlakatimizga ekspertlar guruhi tashrif buyurdi.

Global baholashning maqsadi xalqaro va Yevropa ko'rsatmalari va tavsiyalariga, shu jumladan, BMTning rasmiy statistika asosiy tamoyillari va Yevropa statistikasi amaliyot kodeksiga muvofiq, rasmiy statistika tayyorlashda institutsional, tashkiliy hamda texnik salohiyatni har tomonlama tahlil qilishdan iborat.

Bu dastlab 2008-yilda Janubiy-Sharqiy Yevropa va Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi milliy statistika tizimlarini baholashdan boshlangan. Global baholashlar nafaqat milliy statistika idoralari (O'zbekiston misolida Statistika agentligi) bilan bog'liq, shuningdek, rasmiy statistikaning barcha asosiy tayyorlovchilari (masalan, markaziy bank, iqtisodiyot, molliya, bandlikka mas'ul vazirliklar va boshqalar)ni qamrab oladi. Shunday qilib, Global baholashlar hukumatlar, foydalanuvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlar uchun statistika tizimlari rivojlanishining umumiy holati haqida keng qamrovli tasavvurga ega bo'lish uchun noyob imkoniyat hisoblanadi. O'tkazilgan global baholash natijalari bo'yicha olinadigan tavsiyalar O'zbekiston milliy statistika tizimini rivojlantirishning 2026-2030-yillar uchun mo'ljallangan strategiyani ishlab chiqishda foydalaniladi.

Ekspertlar guruhi “O'zbekiston milliy statistika tizimini global baholash” dasturi bo'yicha o'zlarining dastlabki xulosalarini iqtisodiyotga taqdim etdi. Barqaror rivojlanish statistikasi o'zida qo'lg'usiz bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz yuqori baholandi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish O'zbekistonning jahon hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar kelajak avlodlar uchun barqaror va xavfsiz muhit yaratishni kafolatlaydi.

Statistika agentligi ushbu maqsadlarga erishishda muhim o'rin tutadi. Agentlik mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarini tizimli ravishda tahlil qilib, tahlil natijalari asosida hukumatga strategik qarorlar qabul qilish uchun ishonchli ma'lumotlar taqdim etadi. Rasmiy statistika orasida amaliyotning ilg'or namunasi bo'lib, BMT tizimi bilan muvaffaqiyatli hamkorlik natijasi sifatida e'tirof etilgan. Statistika agentligi tomonidan 2018-2023-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasida Milliy BRMlarga erishish bo'yicha statistik ko'rsatkichlar to'plamlari” uchta — o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanib, nashr etildi.

Bundan tashqari, bugungi kunda 143 ta MBRM ko'rsatkichlari jadvallar hamda infografikalar shaklida taqdim etilmoqda.



Bahodir BEGALOV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

Mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ga mos ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Bunda o'z vazifalarimizni aniq belgilab olganimiz qo'l kelyapti. Prezidentimiz Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrif doirasida Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi xalqaro sammitida ishtirok etishi aynan mazkur tamoyillarni amalga oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning yaqqol isbotidir.

Barqaror rivojlanish haftaligi 2008-yilda BAA hukumati va “Masdar” kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan xalqaro platforma bo'lib, uning asosiy maqsadi jahondagi barqaror rivojlanishni jadallashirish, oziq-ovqat va suv xavfsizligini ta'minlash, energiya tejamkorligi hamda karbonsizlantirish yo'lidagi harakatlarni ilgari surishdir. Bu yilgi sammit kun tartibiga “yashil” iqtisodiyot, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash kabi muhim masalalar kiritildi.

O'zbekistonning mazkur sammitda faol ishtiroki, shu jumladan, Toshkent shahridagi Prezident maktabining “Global o'rta maktablar” nominatsiyasida g'olib bo'lishi, mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi borilayotgan islohotlar xalqaro miqyosda tan olinayotganidan dalolat beradi.

BRM dunyo mamlakatlariga uchun XXI asrning asosiy rivojlanish yo'nalishlari majmuyi bo'lib, nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy va ekologik jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Ayni omillarni uyg'unlashtirishga qaratilgan bu tushuncha 1987-yilda BMT tomonidan tayyorlangan “Bizning umumiy kelajagimiz” hisobotida ilgari surilgan. Barqaror rivojlanishga “Hozirgi davrda insoniyat ehtiyojlarini qondirishni, lekin kelajak avlodlar imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymaslik”ni nazarda tutuvchi konsepsiya sifatida ta'rif beriladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining uchta asosiy tamoyili mavjud. Birinchisi, aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish orqali jamiyatni ijtimoiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy tamoyillar bo'lsa, ikkinchisi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida innovatsiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish, inqirozlarni yengib o'tish choralarni ko'rishga yo'naltirilgan iqtisodiy tamoyillardir. Uchinchisi esa ekologik tamoyillar hisoblanib, ular tabiatni muhofaza qilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qayta tiklanish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

O'zbekiston BMTning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi dasturini amalga oshirish bo'yicha o'z

majburiyatlarini to'liq ado etib kelmoqda. Buning uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, Barqaror rivojlanish maqsadlarini mamlakatimiz ehtiyojlariga moslashtirishda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ahamiyati katta. Ya'ni hozirgi kunda yurtimizda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur huquqiy, iqtisodiy va institutsional baza yaratilgan. Lekin dunyodagi geosiyosiy, iqtisodiy beqarorliklar hamda tahdidlarni hisobga olsak, bu boradagi ishlar dolzarbligi tobora ortib boraveradi.

Mamlakatimizda turli soha va hududlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar, konsepsiyalar, maqsadli dasturlar hamda yo'l xaritalarini Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etyapti. Shuningdek, erishilgan natijalarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va milliy maqsadlarga erishish bo'yicha kelgusi qadamlarni belgilashga ehtiyoj ortgan.

2025-yil yurtimizda Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yili deb e'lon qilindi. Ushbu muhim qaror ekologik barqaror texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga integratsiya qilish, odamlar turmush sifati va tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlashga qaratilgan bilan ahamiyatli.

BRM mamlakat kelajagini belgilaydigan asosiy strategiyalardan biridir. Shu ma'noda, 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy dasturlarga integratsiya qilish orqali ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilab olingani diqqatga sazovor.




O'zbekiston Respublikasida tibbiyot muassasalari soni (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, birlik)

Erishilgan natijalar nimalarda ko'rinadi?

Statistika agentligining “O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish maqsadlari” statistik to'plamida aks etgan raqamlarga e'tibor qaratsa, mamlakatimizda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha bir qator ijobiy natijalar qayd etilgan. Jumladan, 2023-yilda O'zbekistonda aholining kambag'allik darajasi sezilarli darajada kamaydi. Rasmiy kambag'allik chegarasidan pastda yashayotgan aholining ulushi 2021-yilda 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 14,1 foizga pasaygan. Bu o'zgarishlar 2023-yilda ham davom etib, 11 foizga tushgani ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar samaradorligidan dalolat beradi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tibbiyot muassasalari soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1432 tani tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 432 taga oshgan.

Sifatli ta'lim olish odamlarning turmush sharoitini yaxshilash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga zamin yaratadi. Ta'limning quyaligi va sifati masalalarini dunyoning barcha davlatlari strategik rivojlanish dasturlariga kiritilgan. Chunki davlat aholining o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini uchun ta'lim muhitini yaratish orqali mamlakatda moddiy farovonlik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, inson kapitalini oshirishga hissa qo'shadi. Davlatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirib, xalqaro maydonda raqobatdosh ustunlikni yaratadi.



Oliy ta'lim tashkilotlari soni

O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni (o'quv yili boshiga, birlik)

Ta'lim tizimini rivojlantirish xalqaro tamoyillarga asoslanadi. Ulardan biri arzon, sifatli ta'limni amalga oshirish uchun sharoit yaratish va ta'minlashdir.

O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlangan. Savodsizlikka barham berish va barcha uchun arzon ta'limni ta'minlashda katta muvaffaqiyatlarga erishgan yurtimizda ta'limni davlat tomonidan moliyalashtirishning ustunligini saqlab kelayotgani ijobiy omildir. Bu mamlakatimizda oliy ta'lim tashkilotlari soni yildan yilga ortib borayotganida ham ko'rinadi.

Ta'lim har bir jamiyatning asosiy rivojlanish ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bois, yangi universitetlar tashkil etilib, xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik kengaymoqda. Xotin-qizlarning ta'lim olish darajasini oshirish bo'yicha alohida dasturlar amalga oshirilyapti. Bu, ayniqsa, qishloqlarda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu ma'lumotlarni jamoatchilikka yetkazish, aholini xabardor qilish zarur. Ilmiy-ommabop statistik ma'lumotlar jamoatchilikning atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan yondashuvini yaxshilaydi. Jamiyatda barqaror rivojlanish g'oyalari keng tarqatish uchun zamin yaratadi.

Monitoring va xabardorlik ham muhim

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatish hamda ushbu sohada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun aniq, o'z vaqtida tayyorlangan, xarakteristikalarini bo'yicha taqsimlangan, dolzarb va foydalanish uchun qayta bo'lgan statistik ma'lumotlar zarur. Bu borada statistika hamjamiyati zimmatisiga 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi ko'rsatkichlarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Yangilik

Xalqaro moliya bozori doim barqaror turavermaydi. Qandaydir hodisa yoki omil uni beqaror, ishonchsiz holatga keltirishi mumkin. Masalan, 2008-yili boshlangan inqiroz jahon moliya bozoriga jiddiy ta'sir qilgan. Buning bosh omili sifatida ipoteka bozorida o'zgarishlar, ya'ni banklar tomonidan ipoteka krediti ajratish borasidagi noto'g'ri ish tutumi ko'rsatilgandi.

Dunyo mushtarak, bozorlar bir-biriga bog'liq. Bu globallashuv, rivojlanishdan darak. Lekin ayrim hollarda mana shunday holatlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga o'sha jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida yirik moliyaviy institutlar muvaffaqiyatsizligi moliya tizimi va real iqtisodiyotga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgani yaqqol dalil bo'ladi. Bu esa Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida qator makroprudensial choralar ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. Jumladan, moliyaviy holat yomonlashuvi butun mamlakat iqtisodiyotiga



salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan banklarda yuzaga keladigan tarkibiy tizimli xatarlarning oldini olish maqsadida mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha o'z tavsiyalarini ishlab chiqdi.

O'zbekiston bank tizimida ham makroprudensial boshqarish, qo'nguna asosan nazorat o'rnatilishi, banklar faoliyatini liberalashtirilishi, bank xizmatlaridan foydalanuvchilar huquqlariga ustuvorlik berilishi mana shunday mexanizm yaratilishiga olib keldi. Shu maqsadda Markaziy bank tomonidan ilk marotaba tizimli ahamiyatga molik banklar ro'yxati shakllantirildi. Bu muhim. Chunki iqtisodiy va moliyaviy o'sish maromini ta'minlash zalvari, birinchi navbatda, jamg'armalarni investitsiyalarga aylantiruvchi banklar va kredit tashkilotlari zimmatisiga tushadi. Ayni paytda mazkur ro'yxatdan

“O'zmilliybank” AJ, “Agrobank” ATB, “O'z-sanoatqurilishbank” ATB, AT “Xalq banki”, “Ipoteka-bank” ATIB, “Kapitalbank” ATB, “Asakabank” AJ joy olgan.

Lekin mazkur ro'yxatga mijozlari, filiallari ko'p, aksar hollarda budget mablag'i bilan ishlaydigan, davlat ahamiyatiga molik strategik vazifalarni bajarishga safarbar etiladigan banklarning ayrimlari kirmay qolgan. Ro'yxatga kirmay qolgan yirik banklar faoliyatini mamlakatimiz bank tizimidagi “ob-havo”ni belgilay olmaydimi?

Tizimli ahamiyatga molik banklar Markaziy bankning 2023-yil 18-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan aniqlanadi, — deydi Markaziy bankning bank tizimi barqarorligi departamenti direktori o'rinbosari Uchqun Jumanazarov. — Xususan, bu banklarni aniqlashda banklarning faqat ayrim ko'rsatkichlariga

emas, balki mamlakat moliya tizimiga ta'sir ko'lamini, bank tizimi ishtirokchilari bilan o'zaro bog'liqlik, qamrovini va amalga oshiradigan operatsiyalarning murakkabligi mezonlari inobatga olinadi.

Tizimli xatarlar va tizimli ahamiyatga molik banklar uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan makroprudensial choralar to'g'risida ma'lumotlar bilan Markaziy bank rasmiy veb-saytning “moliyaviy barqarorlik” qismida joylashgan “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining makroprudensial siyosat asoslari” bo'limida kengroq tanishish mumkin. Shuningdek, unga tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi ham joylashtirildi.

Ular faoliyatini tegishli muvofiqlashtirish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib boriladi. Tizimli ahamiyatga molik banklar ro'yxatini tuzish ham ana shu yo'nalishdagi ishlaridan biridir.



Tizimli ahamiyatga molik banklar ro'yxati har yili yangilab boriladi. U tijorat banklari rivojlanishi uchun muayyan rag'bat uyg'otishi mumkin. Ya'ni unga boshqa tijorat banklari ham kirishi imkoni mavjud. Ushbu ro'yxat bir yilda bir marta keyingi yil uchun e'lon qilib boriladi va Markaziy bank tomonidan alohida bank nazorati o'rnatishda foydalaniladi.

Shu o'rinda tizimli ahamiyatga molik bankda biror janjirli muammo yuzaga kelsa, u qay yo'sinda yechiladi degan savol ham paydo bo'lishi mumkin. Aynan shunday xatarlar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida


Markaziy bank tomonidan banklarning to'lov imkoniyati hamda likvidligi asosiy va xatarli ssenariylar asosida o'tkaziladigan makro stress-test vositalari orqali doimiy baholab borilmoqda. Zarur hollarda tizimli ahamiyatga molik banklarga makroprudensial choralar qo'llanadi. Xususan, ular uchun qo'shimcha buferlar joriy qilinishi mumkin.

Tizimli ahamiyatga molik banklar boshqa banklar qatori o'rnatilgan normativlar doirasida bank operatsiyalarini amalga oshiradi. Ularda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning oldini olish maqsadida doimiy tahlillar amalga oshiriladi hamda yilda ikki marta chop etiladigan moliyaviy barqarorlik shartida yoritib boriladi.

2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, tizimli ahamiyatga molik banklarning O'zbekiston bank tizimi jamiyati aktivlaridagi ulushi 66 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, mazkur amaliyot, avvalo, keyingi yillarda mamlakatimiz bank tizimida qilinayotgan ishlar xalqaro standartlarga moslashib borayotganidan dalolat bersa, ikkinchidan, global miqyosda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy holatlarining oldini olishda qo'l keladi.

Dilshod ULUG'MURODOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Taraqqiyot odimlari

MUNOSIB RAG'BAT — TA'LIM SIFATINI YUKSALTIRISHNING SEHRLI KALITI

Murod MUHAMMEDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor
Bahodir MARDONOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, taraqqiyotning ravon yo'lga chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar juda ko'p. Ular ro'yxatida ta'lim birinchi o'rinda turadi. Ta'limning taraqqiyotini ta'minlashdagi imkoniyati ulkan. Ulardan unumli va o'rinni foydalangan davlatlar allaqachon ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish poygasida peshqadamlikni qo'lga kiritib, rivojlanishning yuqori cho'qqilaridan munosib o'rin egalladi. Yurtimizda ta'lim sohasidagi islohotlar Uchinchi Rennans poydevorini qurish tomon qo'yilgan dadil qadam bo'lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida chinakam tub burilish yashash uchun xizmat qiladi.

Ta'lim chorrahasida tub burilish

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ham ancha yil ta'lim tizimi monopoliya iskanjasidan chiqolmadi. Bozor iqtisodiyotining obektiv qonuniyati talablarini inkor qilish oqibatida taraqqiyotda erishish mumkin bo'lgan katta imkoniyatlar boy berildi, qo'lga kiritilishi muqarrar bo'lgan iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishilmadi. Sohada raqobat muhiti yaratilmagani ta'limning cheksiz imkoniyatlarini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishining yetakchi omiliga, drayveriga aylantirish yo'lida asosiy to'siq bo'ldi. Chunki aynan raqobat bozor iqtisodiyoti kuch-qudratini, mo'jizalarini ro'yogga chiqarish mexanizmlari tarkibida asosiy o'rin egallashi barcha iqtisodchilar yakdillik bilan e'tirof etgan aksiomad. Mustaqil O'zbekistonda raqobat muhitisiz ta'lim tabiat qo'yniga qo'yib yuborilgan tutqun kabi noiloh va nimjon edi.

Hozir butun dunyoda ta'lim mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yetakchi omiliga aylandi. Uning mo'jizakor kuchini o'z vaqtida payqagan, olamshumul ahamiyatini idrok etgan, qadrlagan mamlakatlar allaqachon ta'lim imkoniyatlaridan amaliy natija olib, xalqi uchun munosib hayot tarzini ta'minladi.

Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan ushbu muhim qadam uning taraqqiyotdagi rolini to'la idrok etmagan odamlar uchun oddiy tuyulishi mumkin. Lekin, nazarimizda, bu yangi O'zbekiston hayotida tub burilish yashashga qodir, katta qoniqlik bilan e'tirof etishga loyiq tarixiy voqeadir. Mamlakatimizda xususiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etilishi ana shu voqealardan biri. Natijada, avvalo, oliy ta'lim sohasida davlat ta'lim muassasalari bilan xususiy ta'lim muassasalari o'rtasida o'qitish sifatini oshirish muammosini yechishda o'ta zarur bo'lgan real raqobat muhiti vujudga keldi. Ko'plab yoshlar xususiy oliy ta'lim orqali bilim va saviyasini oshirish, ishchanlik salohiyatini yuksaltirish imkoniga ega bo'ldi. Tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyati yurtimizning bugungi hayoti, ayniqsa, kelajagi uchun o'ta dolzarb muammoni yechish — oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan iqtisodiyotning ta'minlanganlik darajasini ko'tarishga real imkoniyat yaratib berdi. Muhimi, ko'plab professor-o'qituvchilar hamda yordamchi personal xodimlar ishsizlik balosidan qutulib, foydali ijtimoiy mehnat bilan band bo'la boshladi. Demak, bu islohot tufayli yangi ish o'rinlari ham ochildi.

Xorijga yuqori ish haqiga da'vogarlik qilishga loyiq malakali, oliy ma'lumotli mutaxassislarni eksport qilish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil topishi va yangi ish o'rinlari paydo bo'lishi professor-o'qituvchilar mehnatiga talabning kuchayishiga, demak, ularning ilmiy-pedagogik mahorati qadrlanishiga zamin yaratdi. Bu o'z-o'zidan mutaxassislarni rivojlanish, o'sish, o'z ustida muntazam ishlashga rag'batlantirdi.

Bundan tashqari, xususiy oliy ta'lim muassasalari yo'lga qo'ygan xizmatlar hisobidan milliy iqtisodiyotda YIM hajmini sezilarli darajada oshirish va iqtisodiy o'sish sur'atini jadallashtirish imkoniyati vujudga keldi. O'z navbatida, xizmatlar hajmining nisbatan tez sur'at bilan o'sishi mamlakatimizning postindustrial jamiyatga o'tish jarayonini jadallashtiradi. Xususiy oliy ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari, shuningdek, sohada band bo'lgan xodimlar ish haqi daromadidan



Bo'lajak talabalarni toifalar bo'yicha tabaqalashda motivatsiya imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, birinchi toifa abituriyentlariga to'lov miqdorini davlat universitetlariga nisbatan 10 foiz kam, ikkinchi toifa uchun esa, aksincha, undan 10 foiz yuqori qilib o'rnatish ham katta ijobiy samara berishi muqarrar.

Bu borada Yaponiya, AQSH, G'arb mamlakatlarining tahsinga loyiq ilg'or tajribasi fikrimiz dalilidir.

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimidagi bugungi islohotlar o'qitish tizimidan xabari bor kishilarga katta qunovch bo'lishadi. Ular sohaning ulkan salohiyati ona yurt ravnaqi yo'lida xizmat qilishga real imkoniyat paydo bo'lganiga ishonch hosil qildi.

Oliy ta'limda raqobat muhiti

Islohotlar tufayli oliy ta'limda tashabbuskorlik faoliyati uchun keng yo'l ochib berilishi yangi O'zbekistonda ilm-fan, o'qitishni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari zanjirida eng muhim bosqich bo'ldi. Uning natijasida ta'lim sohasini rivojlantirishga katta to'siqnik qilayotgan davlat monopoliyasiga chek qo'yilib, ushbu soha imkoniyatlarini taraqqiyot drayveriga aylantirish uchun suv va havodir zarur bo'lgan raqobat muhiti yaratildi.

undiriladigan sotqilar hisobidan davlat byudjeti daromadi ko'payadi.

Qolaversa, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi kabi muhim hujjatlarida ko'zda tutilgan inson kapitalini tez sur'atda rivojlantirish g'oyasini hayotga tatbiq etishda g'oyat muhim. Shu bilan birga, xususiy oliy ta'lim muassasalari har qanday yangi ishda yuz berishi muqarrar bo'lgan ayrim qiyinchilik va muammolarga duch keldi.

Xususiy ta'lim muammolari

Taraqqiyotga xalal berayotgan, uning yo'lga g'ov bo'layotgan muammolari aniqlash, izlab topish va bartaraf etish mazkur sohada muvaffaqiyatga erishishning asosiy shartidir. Shu sababli bugun oliy ta'lim tizimida xususiy sektor rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim fikrlarni keng auditoriya muhokamasiga chiqarmoqchimiz.



Bizningcha, xususiy oliy ta'limni rivojlantirishda jiddiy muammo — o'qishga qabul qilingan yoshlar bilim saviyasining talab darajasida emasligi. Xususiy universitetlarga talabalar test imtihonlarisiz, shartnoma asosida qabul qilindi. Natijada xususiy oliy ta'lim muassasalari talabalar kontingentining deyarli hammasi davlat oliy o'quv yurtlariga kirish test imtihonlarini topshirib, bilim darajasi qoniqarli emasligi tufayli sinovdan o'tolmagan abituriyentlar hisobidan shakllandi. Ushbu toifadagi abituriyentlar bilim saviyasi pastligining ikki asosiy sababi bo'lishi mumkin. Birinchisi, talabalikka da'vogarlik qilayotgan shaxsning umumiy ta'lim maktabida bilimlarni o'zlashtirish darajasi past bo'lgan. Ikkinchisi, o'qishni umuman yoqtirmaydigan, tabiatan dangasa, ishyoqmas, loqayd va beparvo shaxs. Ikkala holatda ham ushbu toifadagi yoshlarning bilim darajasini ta'lim standartlari talablarini darajasiga ko'tarish oson ish emas.

raqobatchi bo'lib maydonga chiqish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Fikrimizcha, vaziyatni o'zgartirishning amaliy natija berishi muqarrar bo'lgan istiqbolli yo'nalishlardan biri — yoshlarning o'qishga munosabatini o'zgartirish, ta'lim sifatini oshirishda o'ta-onalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish. Ushbu maqsadda talabalar o'ta-onalari bilan uzviy aloqa o'rnatish, ularning farzandlari kelajagiga, taqdiriga befarq emasligini hisobga olgan holda o'ta-onalarni farzandlarining fanlarni o'zlashtirishdagi ahvolidan o'z vaqtida xabardor qilish. O'rta maktab yoki kollejdagi o'qishga bo'yin egmagan, bilim saviyasi past, savodsiz, ishyoqmas yoshlar uchun universitetga osongina kirish — katta baxt, omad. Ayni paytda qulay qo'lga kiritilgan imkoniyat ularni beparvolik, mas'uliyatsizlik tomon yetaklaydi. Afsuski, ko'p o'ta-onalar og'ir mehnat bilan topgan pulini aziz farzandlari uchun ayamay sarflaydi. Natijada ularning kelajakda bilimni, ma'rifatni bo'lib voyaga yetishiga yana bir marta imkoniyat yaratib beradi. Lekin bolalarning hammasi ham o'ta-ona mehnatining qadriga yetmaydi, ilm olishga nisbatan o'rta maktabda o'qish jarayonida yo'l qo'ygan mas'uliyatsizlikni davom ettiradi.

Aksariyat o'ta-onalar "Farzandim uchun shuncha mablag' sarfladim, endi uni professor-o'qituvchilar o'qitib, ilmi, ma'rifati, zo'r mutaxassis qilib tayyorlab beradi" degan kayfiyatda yuradi. Lekin ularning ayrimlari o'qishga to'langan mo'maygina pulning o'zi natija emas, balki natijaga erishish uchun yoshlarga berilgan imkoniyat ekanini yaxshi tushunib yetmaydi. Shuncha yil davomida maktabda bepul o'qish jarayonida davlat tomonidan yaratilgan ulkan imkoniyatlaridan foydalanmagan va jiddiy xatolarga yo'l qo'ygan farzand endi o'ta-onasi tomonidan yaratilgan ikkinchi imkoniyatdan unumli foydalanib qolishga shoshilmaydi. O'ta-onalar "erkatoy" farzandining kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun universitet professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda, ular bilan yonma-yon turib mehnat qilishi, jon kuydirishi, bu muhim ishda ularga yaqindan yordam berishi zarurligini unutmashlik kerak. Ularga ushbu vaziyatni obdan tushuntirishni universitet mutaxassislari o'z zimmasiga olishi, o'qitish sifatini oshirish muammosini hal etishda unumli foydalanishi lozim.

Takliflar soha rivojiga hissa qo'shishi mumkin

O'qishga qabul qilingan yoshlarning bilim darajasida davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlari o'rtasida mavjud keskin farqni bartaraf etish va ularni raqobat sharoitini tenglashtirish muammosi imkon qadar tez, ya'ni o'quv jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq hal etilishi maqsadga muvofiq. Xususiy oliy o'quv yurtlari ushbu dolzarb muammoni hal etishning to'g'ri va yaxshi amaliy samara berishi mumkin bo'lgan yechimlarini izlab topishi lozim. Bu borada ularga ba'zi takliflarimizni bermoqchimiz.

Nodavlat oliy o'quv yurtiga kirishni tanlagan yoshlarni ikki toifaga ajratish kerak. Birinchisi, davlat test imtihonlarini topshirib, tanlagan mutaxassisligi

bo'yicha institutga o'qishga kirishga yetarli ball to'plagan yoshlar. Bunday talabalarga davlat oliy o'quv yurtlari singari universitetni o'qib tugatish uchun imkoniyat yaratib berish maqsadga muvofiq. Ikkinchi toifa — xususiy oliy ta'lim muassasasiga hech qanday kirish imtihonlarisiz kirib o'qishni xohlaganlar. Bunday xohishga davlat test imtihonlaridan to'plagan ballarning o'rnatilgan me'yordan past bo'lgani yoki kirish imtihonlarida ishtirok etishni xohlamaslik yoki tabiatan yoqtirmaslik sabab bo'lishi mumkin.

Ikkinchi toifadagi talabalar uchun xususiy oliy ta'lim muassasasi faqat birinchi kurs davomida o'qitishni kafolatlaydi. Ushbu toifadagi talabalar keyingi kurslarda o'qishni davom ettirish uchun belgilangan 3-4 ta muhim fan bo'yicha sinov imtihoni topshirishi, kelajakda oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lib shakllanishga layoqatli, malakali mutaxassis bo'lishga munosib nomzod ekanini amalda isbotlab berishi kerak. Yaratilgan imkoniyatdan unumli foydalana olmaganlarning esa universitet bilan xayrlashishi va boshqa sohada ish izlashiga to'g'ri keladi. Natijada xususiy oliy o'quv yurtlarida ikkinchi kursda o'qishga start berilgan paytda talabalarining bilim saviyasi va yaxshi o'qib, yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun salohiyati davlat oliy o'quv yurtlari talabalarinikiga tenglashadi. Eng muhimi, o'qishning dastlabki bosqichidayoq talabalarining bilim darajasi bo'yicha davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi tengsizlikka chek qo'yiladi.

Bo'lajak talabalarni toifalar bo'yicha tabaqalashda motivatsiya imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, birinchi toifa abituriyentlariga to'lov miqdorini davlat universitetlariga nisbatan 10 foiz kam, ikkinchi toifa uchun esa, aksincha, undan 10 foiz yuqori qilib o'rnatish ham katta ijobiy samara berishi muqarrar.

Davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi raqobat sohasida yuzaga kelgan tengsizlik muammosini bartaraf etishning boshqa mexanizmlarini ham yaratish mumkin. Eng muhimi — muammoning qo'yilishi. Inson aqlu zakovati har qanday dolzarb muammoning yechimini izlab topishga qodir. O'tgan asrning 30-yillarida iqtisodiy taraqqiyot insoniyat, xususan, iqtisodchi olimlar oldiga tarixda "Buyuk depressiya" deb nom olgan iqtisodiy inqirozni bartaraf etish muammosini qo'ydi. Yuzlab, minglab iqtisodchilar orasida ushbu dolzarb muammoning samarali yechimini yuksak iste'dod sahibi D.Keyns izlab topdi va olamga mashhur iqtisodchiga aylandi.

Amaliy tajriba va kuzatuvlar shundan dalolat beradiki, bugun xususiy ta'lim muassasalaring aksariyati ushbu dolzarb muammoni yechishda asosiy e'tiborni o'qituvchi va talabalar bilim sifatiga talab hamma nazoratni kuchaytirishga qaratadi. Lekin faqat ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar sifatini oshirish, talabalar bilim sifatiga talabni kuchaytirishning o'zi bilan bu o'ta og'ir muammoni hal qilishning iloji yo'q. Bizningcha, xususiy ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirishning ayrim yashirin

imkoniyatlari mavjud va ulardan unumli foydalanish mumkin va lozim. Bular quyidagilar:

Birinchi, universitetda o'tiladigan asosiy fanlar bo'yicha ilmiy to'garaklar tashkil etib, talabalarga chuqur bilim egallash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish. O'quv rejaralarida ko'zda tutilgan soatlar fanni chuqur o'zlashtirish uchun yetarli emas. Ayniqsa, qobiliyati past, bazaviy bilimi yetarli bo'lmagan talabalar uchun bu tadbirning ahamiyati juda katta. Ilmiy to'garaklar, birinchidan, bilim sifatini oshirishda muhim, ikkinchidan esa talabalar o'zlarining vaqtini foydali ishga yo'naltirish uchun real imkoniyat yaratadi. Tajribali o'qituvchining bevosita ishtirokida tashkil etilgan to'garak talabalarining imkoniyatini o'zlashtirish, uning fanni chuqur o'rganishiga katta yordam beradi.

Ikkinchidan, ko'pchilik yoshlarda, o'ta-onalarda xususiy ta'limga nisbatan hadiksirash, shubha bilan qarash, ishonchsizlik mavjud. Afsuski, o'ta-onalarda, hatto o'qishga kirmoqchi bo'lgan yoshlarda ham oliy ta'lim muassasasi diplomi bilan ishga joylashishda qiyinchiliklar tug'lishi mumkin, degan noto'g'ri qarash shakllangan. Natijada abituriyentlar oliy ta'lim muassasasini tanlashda xususiy ta'lim sohasida kirish imtihonlari bilan bog'liq tashvish va boshog'riqlar yo'qligiga qaramay, aynan davlat oliy o'quv yurtlariga ustunlik beradi. Aslida, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishga tanlov da'vogar mutaxassisning qaysi mulk shaklidagi oliy ta'lim muassasasini bitirganiga qarab emas, balki uning kasbiy malakasi va bilim saviyasiga ko'ra amalga oshiriladi.

Ba'zi nodavlat oliy o'quv yurtlari xususiy mulk negizida tashkil topganiga qaramay, qisqqa (qariyb 3-4 yil) muddatda oliy ma'lumotli mutaxassislar mehnat bozorida diqqatga loyiq muvaffaqiyatlariga erishdi. Xususiy ta'lim muassasasi afzalliklaridan, ta'lim jarayonini tashkil qilishdagi erkinliklardan, moliyaviy mustaqillikdan katta aql bilan unumli foydalangan oliy o'quv yurtlari ta'lim sifatini keskin oshirish orqali kasbiy malakaning qadriga yetadigan ish beruvchilar orasida obro' qozondi.

Uchinchidan, talabalar orasida katta tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish mumkin. Xususiy ta'lim muassasalari talabalarining aksariyati o'z vaqtida maktabda yoki kollejdagi o'qishning qadriga yetmagan uchun ham mazkur universitetga o'qishga kirganini hisobga olish zarur. Ularda o'qishga kuchli qiziqish uyg'otish, o'qishning mohiyati va ahamiyati, uning jamiyat uchun, shaxsan talabaning o'zi uchun nechog'liq muhimligini qayta-qayta singdirish, yetakchi olimlar ishtirokida qiziqarli uchrashuvlar o'tkazib borish ta'lim sifatini oshirishda juda muhim.

To'rtinchidan, professor-o'qituvchilar hamda talabalar salohiyatini to'la ro'yogga chiqarish imkonini beruvchi samarali mexanizmlar yaratish va amaliyotga joriy etish. Insonda qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishdan qat'i nazar, hamisha faqat vaziyat taqozo etgandagina ro'yogga chiqishi mumkin bo'lgan katta yashirin ichki salohiyati mavjud bo'ladi. Bizningcha, professor-o'qituvchilarda ham, talabalarda ham mujassam bo'lgan ana shu ichki salohiyatini to'la ro'yogga chiqarish muhim. Unga turki beruvchi omil moddiy rag'bat yoki, aksincha, moddiy joriy etilgan. Moddiy rag'bat va moddiy jazo — ta'lim sifatini eng yuqori cho'qqiga chiqarishning oltin kaliti deb o'ylaymiz. Faqat ushbu sehrli kalitni ishlatish san'atini chuqur o'rganmog'imiz kerak.

Keyingi yillarda sport sohasida yurtimiz sportchilarining salohiyatini ro'yogga chiqarishda aynan samarali moddiy rag'batlantirish tizimi yetilgan yaxshi samara berdi. Aksincha, avtotransport sohasida yo'l harakati qoidalariga rioya qilmagan haydovchilarga nisbatan moddiy jazo choralarini keng qo'llanishi katta ijobiy natijalar berayotganini hamamiz yaxshi bilamiz.

BOSHQARUV TO'G'RI YO'LGA QO'YILSA...

Yunus BO'RONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiriSahrada
qad rostlagan shahar

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse - prezidenti, Bosh vaziri Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktumning xotiralari o'qigandim: "Angliyadagi ta'limni tugatib, BAAga qaytib keldim. Otamning xohish-istagi bilan hukumat yig'ilishlarida qatnashishga majbur edim. Qaysidir yig'ilishda bir vazirning quruq statistikadan iborat zerikarli nutqini soatlab eshitdim. Ma'ruzada mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish borasida gap borardi. To'g'risi, bunday yig'ilishlarda zerikardim. O'shanda vazirning gapini bo'lib, Dubayni dunyoning eng taraqqiy etgan sayyohlik markazlaridan biriga aylantirish zarurligini aytdim.



To'satdan aytilgan bu fikrimga ko'pchilik vazirlar hayratda qoldi. Yil — o'n ikki oy jazirama va qumliklardan iborat shaharga turistlar kelamidi, degan istehzoli gaplar bildirildi. Shunda men ishonch bilan "Ha, keladi!" deya javob qaytardim.

Boisi, bir muddat avval dengiz qirg'og'ida aylanib yurganimda safarga chiqqan germaniyalik oilani uchratdim. Ulardan nega sayohat uchun aynan Dubayga kelganini so'radim. Ular quyosh, dengiz va qumliklarni ko'rish uchun kelganini aytdi. Ushbu xorijlik oila bilan bo'lib o'tgan qisqa suhbatdan so'ng menda bu g'oyani amalga oshirishga kuchli ishtiyoq paydo bo'ldi". Xotiralarning qisqacha mazmuni shunday edi.

Haqiqatan, bir necha o'n yillar oldin Dubay sahra ustida qad rostlagan pastqam va pala-partish binolardan iborat shahar bo'lgan. Mamlakatning o'sha paytdagi asosiy daromadi neft edi. Bugungi zamonaviy Dubayning bunyod etilishida shahzodaning o'rni va yetakchilik qobiliyati muhim o'rin egallaydi. Buni butun dunyo e'tirof etadi.

Ta'kidlash kerakki, neft konlariga boy hudud o'sha paytlarda aholining farovon yashashi uchun yagona manba hisoblangan. To'g'ri, "qora oltin" shaharda barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Ayni paytda kelib esa neft sotuvidan keladigan daromad Amirlik ko'rayotgan foydaning bor-yo'g'i 6 foizini tashkil qiladi.

Bugun butun dunyo investitsiya va sayyohlik markazlaridan biriga aylangan BAA poytaxtiga "kelajak shahri" deya ta'rif berishadi. Chunki aql bovar qilmay darajadagi arxitektura yechimlari asosida bunyod etilgan binolarga dunyoning manaman degan davlatlari aholisi ham hayrat va havas bilan qaramoqda.

Oqilona boshqaruv siyosati, investorlarning amin-erkin faoliyat yuritishiga kafolat, erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi butun dunyo sarmoyadorlarini bir yerga jalb eta oldi. Pirovardida Dubay jahon sayyohlarining eng jozibali manzillaridan biriga aylandi.

Samarqandga 2 million
sayyoh tashrif buyurdi

Maqolamiz avvalini bejiz Dubaydan boshlamadik. Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

qamrovli soha. Mazkur soha daromadligi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko'p ish o'rini yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 barobar oshgan. Soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgan natijasida u yerga qo'shimcha 2 million sayyoh kelgan.

O'tgan yil yozda oilam bilan Samarqandga aylanishga bordim. Yangilanishlar va bunyodkorliklar buyuk o'timishimizdan guvohlik berib turuvchi ushbu tarixiy kentimizga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazibdi. Ko'chalar, xiyobonlar yilning to'rt faslida yashillikka burkangan. Yangi, zamonaviy mehmonxonalar qad rostlagan. Ayniqsa, bahor va kuz oylarida shahar ko'chalari dunyoning turli burchaklaridan kelgan sayyohlar bilan to'ldi. Yana bir muhim o'zgarish: turistlariga xizmat ko'rsatish madaniyati yuksalgan. Infratuzilma shakllangan.



Hali bormasimdan Polsha tarixiy shahar ekan-da deb hafsalam pir bo'lgani rost. Sababi yosh bo'lganim bois, G'arbnig eng rivojlangan va zamonaviy shaharlarini ko'raman degan ishtiyoq bor edi-da menda.

Borganimizda esa Varshava juda zamonaviy va osmono'par binolar qad rostlagan manzil ekaniga guvoh bo'ldim. Safarimiz davomida tarjimonga elchixonadagi ilk taassurotim haqida aytib berganimda kulib, meni Varshavaning eski shahar qismiga olib borishini aytdi.

Tarjimoning so'zlab berishicha, Ikkinchi jahon urushi davrida Varshava shahri yer bilan tekislab tashlangan ekan. Urushdan keyin mamlakat poytaxti tarixini tiklash maqsadida o'sha loyihalar asosida qadimiy turar joylar qaytadan qurilgan. Bugun ham aynan Varshavaning eski shahar qismiga yiliga millionlab odamlar tashrif buyuradi. Mehmonxonalar, oshxonalar, turli xizmat ko'rsatish shoxobchalari yilning to'rt faslida ham ochiq va xorijlik mehmonlarga muntazir. Bir necha o'n minglab polyaklar bu yerda tadbirkorlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, millatning buyukligi va istiqbol qadim o'timishi bilan chambarchas bog'liq.

Jozibador yurt

Yaqinda shaxsiy mashinamda qo'shni mamlakatga sayohatga bordim. Asosan tog'liklardan iborat ushbu davlatda yo'llar tekis va ravonligi e'tiborimni tortdi. Avaz Oxun aytganidek, dovondan o'tishda odam vahimaga tushishi turgan gap. Buni bizga yo'l ko'rsatuvchilar ham bot-bot takrorladi.

E'tiborimni tortgan yana bir jihati, yo'l bo'yida kafe va restoranlarning juda kamligi

Ertalab Registon maydonida sayr qilib yurgan qorachadan kelgan bir sayyohni to'xtatib, suhbatga chorladim.

— Asli Sudandanman. BAAda oilam bilan yashayman. Stomatologman. Yurtimiz haqida, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarimiz haqida ko'p eshitganman. Mamlakatimizdagi tinchlik-totuvlikni ko'rib, rosti, havas qildim. Dunyoning boshqa davlatlariga qaraganda sizlarda ancha arzonchilik ekan. Odamlaringiz yuz-ko'zlarida baxt va quvonchni ko'rdim, — deydi mehmon.

Tinchlik-osudalik hukm surgan joyda taraqqiyot bo'ladi. Bunday manzilga esa farovonlik va baraka yog'iladi. Bunday yurtni ko'rishga orzumand mehmonlar ko'payadi.

Tarixga bog'langan
kelajak

2005-yilda Polshaga hamkasbar bilan xizmat safariga bordim. Viza olishda ushbu mamlakatning Toshkentdagi elchixonasida bo'ldik. Elchixonona binosining kirish qismidan tortib ichki xonalargacha Polshaning tarixiy binolari aks etgan fotosuratlar ilib tashlangan.

Mulohaza

Jadid bobomiz
Abdulla Avloniy
"Har bir millatning
dunyoda borlig'ini
ko'rsatadurg'on oyinai
hayoti bu — uning tili va
adabiyotidir. Milliy tilni
yo'qotmak — millatning
ruhini yo'qotmakdir",
degan edi. Har bir tilning
vujudga kelish, iste'molga
kirish tarixi mavjud.
Sirasini aytganda, o'zbek
tili ham uzoq va boy
tarixga ega.

O'zbek tilining ildizi IX-X asrlarga borib taqalishi qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida qayd etilganini eslash kifoya. Tilimizga shuning uchun ham hamisha hurmat ko'rsatilishi shart deb o'ylayman.

O'ZLIKNI ANGLASH
TALABI O'ZGARMAYDI

Bu borada davlatimiz rahbarining bir qator farmon va qarorlari qabul qilinib, amaliy xatti-harakatlar, chora-tadbirlar rejasini belgilanib, hayotga tatbiq qilib kelinayotganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida "Bugungi globalashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir", deb belgilab qo'yilgan ham tilimizga bo'lgan hurmat nechog'liq yuksak ekanini anglatadi.



Yaqinda turmush o'rtog'im bilan Toshkent shahridagi banklardan biriga bordik. Bank xodimasi — yosh o'zbek qizi rus tilida salom berib, bizning qanday masalada kelganimizni surishtirdi. Undan o'zbek tilida gapirishini talab qildik. Keyin qovog'ini uyib o'zbek tilida tushuntirish berdi. Qiziq, u nega boshqa tilda mijozlarga murojaat qilyapti? Ishni tugatib, bank ma'muriyatiga uchradim. Xodimaning mijozlarga boshqa tilda murojaatining asl sababini surishtirdim. U hech narsa deya olmay, nigohi bilan yer chizdi. Rahbari xodimasi uchun oldimda yuzi qizarib, uzr so'radi. Bu ishni kimdir mulzam tortishi uchun emas, aksincha, tilimizga bo'lgan e'tiborga jiddiy qarash zarurligi vajidan qilganimni uqtirdim ularga. Menimcha, tushundi...

Tilga bu kabi bepisand qarash universitet talabari orasida ham tez-tez uchrab turayotgani turli noqulay vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Men talabalarga o'zbek tiliga hurmat bilan yondashish lozimligini ko'p bora ta'kidlayman. Buni ayrimlar beparvoqlik

bilan qabul qilishi mumkin. Ularga, ulug'larimiz aytganidek, tilga nafaqat aloqa vositasi, balki boshqa xalqlar madaniyatini, ruhiyatini va ko'nglini tushunish uchun eshik ochuvchi kalit sifatida qarash joiz ekanini bot-bot tushuntiraman.

Bugun yurtimizda turli tillarni o'rganishga ishtiyoq tobora ortmoqda. Bu quvonarli hol, albatta. Ammo xorijiy tilni bildi, o'rgandi, o'sha tilda fikrlay boshladi degani ona tilini nazar-pisand qilmaslik huquqiga ega bo'ldi degani emas. Shu o'rinda xalqimizning "Tilga e'tibor — elga e'tibor", o'zbek romanchiligining asoschisi, ulug' adib Abdulla Qodiriyning "O'z tilini bilmagan odam o'zligini yo'qotadi", buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Ona tilini unutish o'z onangni unutish bilan tengdir" degan o'g'itlarini yana bir keltirib o'tishni farz deb bildim. Esdan chiqarmang, bu o'g'itlar aytilganidan buyon necha yillar, asrlar o'tgan bo'lsa-da, talab o'sha-o'sha, hanuz o'zgarmagan.

Suhrob RAJABOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti yuturi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifaliti chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 129.
38993 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhir: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy